XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-mart VII-5-63-1-0-K/25 Andijon viloyati

Maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov ta’riflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevraldagi 23-son (XDFU) majlis bayoni 10-bandi ijrosini ta’minlash hamda viloyat hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi poligonlariga qabul qilish va saqlash xizmatlari uchun yagona tariflarni belgilash va tariflarni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-son qarori, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 24-yanvardagi (03/08-16-/49-sonli) xulosasiga asoslanib, hududlardagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-fevraldagi 23-son (XDFU) majlis bayoni ijro uchun, Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 30-yanvardagi 6-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflari 1-ilovaga ma’qullansin.

3. Viloyat hokimligi kotibiyat mudiri (U.Jo‘rayev) maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risidagi viloyat hokimining qarori loyihasini belgilangan tartibda ishlab chiqsin.

4. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (S.Dadamirzayev), viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (Sh.Mamajonov), viloyat sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (A.Ikromov) shahar va tumanlar hokimliklari fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi R.Eshonov mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi munosabati bilan ommaviy axborot vositalari hamda WWW.andijan.uz veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (X.Omanov) hamda viloyat hokimligi kotibiyat mudiri (U.Jo‘rayev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-5-63-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilizatsiya qilish, zararsizlantirish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflari

T/r	**Xizmat nomi**	**1 m^3 uchun** (QQS siz)	**1 m^3 uchun** (QQS bilan)	**1 tonna uchun** (QQS siz)	**1 tonna uchun** (QQS bilan)
1	Maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash xizmati	9 980 so‘m	11 177 so‘m	24 223 so‘m	27 130 so‘m